



ALISHER NAVOIY IJODIDA SHAXS TA'LIM-TARBIYASIGA OID FIKIRLARI

Djumaxmetov Davletbay Nurgaliyevich

Qoraqalpoğiston Respublikasi Tòrtkòl tumaniga qarashli 25-sont
maktabning "Qozoq-tili va adabiyoti" fan òqituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6568059>

MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 01 май 2022 г.

Ma'qullandi: 10 май 2022 г.

Chop etildi: 20 май 2022 г.

KALIT SO'ZLAR

Komil shaxs, tarbiya, ilm, rostlik, vafo, to'g'rilik, yolg'on, jafo, qaram, hayo, soflik, ravshanlik, muruvvat.

Kirish: Sharq mumtoz adabiyotida ta'limgarbiya jarayonlari va ular haqidagi qarashlar salmoqli o'rinni egallaydi. Ushbu masala Alisher Navoiy asarlarida ham atroficha yoritilgan. Navoiy asarlarining bosh g'oyasi komil insondir. Mazkur g'oya Navoiyning barcha asarlari uchun taalluqli. Quyida biz insonning komil shaxs bo'lishida kerak bo'ladigan fazilatlar haqida so'z yuritamiz. Adabiyotlar sharhi: Alisher Navoiy 1441 yil 9-fevralda Xuroson o'lkasining Hirot shaxrida tavallud topgan va 1501-yil 3-yanvarda vafot etgan. Alisher Navoiyning barcha asarlarida insonning ilm o'rganish yo'lida hamisha bardavom bo'lishi ta'kidlangan. Navoiy "Xamsa"sining barcha dostonlarida ilm borasida so'z yuritiladi. "Hayrat ul-abror" dostonining o'n birinchi maqolatida ilm yo'li fidoyilik va iroda talab qilishi; ilm olish insonga obro' va sharaf keltirishi; ilmni boylik orttirish va mansab egallash vositasi emasligi haqidaso'z yuritiladi. Jumladan,

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Alisher Navoiy asarlarida shaxs ta'limgarbiyasiga oid qarashlari va fikirlari haqida mulohaza olib borilgan.

Navoiy ilm o'rganishga jahd qilgan inson qalbni dunyoviy havaslardan tozalashi lozimligi haqida dostonda shunday deydi: "Kim ilmni vositai joh etar, O'ziniyu xalqni gumroh etar" [192] Navoiyga ko'ra, inson uchun ilm o'rganishning o'zigina kifoya emas. Ilm o'rgangan olim, albatta, unga amal ham qilishi lozim. "Ilm, Navoiy, sanga maqsud bil, Emdiki ilm o'ldi, amal aylagil". [194] "Saddi Iskandariy" dostonida ham ilm haqida alohida to'xtalib o'tiladi va shunday ta'rif keltiriladi: "Ko'rub ummiyi ilmlar mahzani, Ravon ilm kasb etmak bo'ldi fani". [24-b] Rostgo'ylik to'g'risida: Rostgo'ylik insonni jamiyatda obro' topishi hamda insonlar orasida ishonchga erishishiga ko'maklashadi. "Hayrat ul-abror" dostonining o'ninchisi maqolatida navoiy rostgo'ylik to'g'risida shunday yozadi: "Rost ul kim, nazari to'g'ridur, Kim iligi egridur, ul o'g'ridur". [177-b]



Navoiy qarashlarining muhim jihatni shundaki, inson rost gapira olmasa yolg'on ham gapirmasini degan g'oya ilgari surilgan: "Necha zarurat aro qolg'on chog'i, Chin demas ersang, dema yolg'on dog'i". [182-b] "Saddi Iskandariy" dostonida esa, rostgo'ylik haqida shunday deyiladi:

"Ki, noqil so'zi sarbasar chin emish,
Ang'a rostliq da'bu oyin emish", deya ta'kidlaydi, shoir. [313-b] Navoiy rost gapirish va to'g'rilik masalasiga alohida ahamiyat qaratadi. Yolg'onchi insonlarni hech kim yaxshi qabul qilmaydi va Navoiy asarlari orqali insonlarni hamisha rost so'zlash va to'g'ri yo'lida yurishga da'vat etadi. Vafo to'g'risida. Alisher Navoiy "Hayrat ul-abror" asarida insonni yetuklikka erishishi uchun kerak sifatlar haqida so'z yuritar ekan, shu qatorda vafo haqida ham atroflicha to'xtaladi: "Vafo bobidakim, "vovi" semurg' "sin" ining zimnida dahyakidek nihon duru va "fo"si Qof tog'i ostidagi "fo"dek ayon va "alif'i kimyo tubidagi "alif" nishonasi va nuktasi mehribiyo butasining donasi. Bas bularni tama' qilg'on kishining ishi suv sathida yugurmak bo'lgay va qaro yerda kema surmak". [153-b] Ma'nosi: "Vafo haqidakim, "vafo so'zining "vov" harfi (bunda "vafo" so'zining arabcha yozilishi ko'zda tutiladi hamda abjadxisobi bo'yicha harflarni bildirishiga ishora qilinadi) "semurg'" so'zidagi "sin" harfining biri son son e'tibori bilan "vov"- 6 ga teng bo'lgani kabi yashirindir, "fo"si Qof tog'i ostidagi "fo"dek ayon va "alif'i "kimiyo" so'zining oxiridagi "alif"ning o'zidir. Nuqta esa dunyodagi eng aziz (nomi boru o'zi yo'q) o'simlik (mehribiyo) chanog'idagi (kamyob) urug'dir; ushbu vafoga yetishishni istagan kishining ishi suv ustida yugurishdek va tuproq ustida kema

haydashdek bo'limgan ishdir". [58-b] Navoiy vafoning arabcha shakliga tarif berganda, so'zlar tarkibidagi har bir harfning o'rni haqida alohida tavsif beriladi. Quyidagi misralarda barcha yaxshi fazilatlar orasida vafoning o'rni mumtoz ekani sharhlangan:

"So'rsa otin ahli safo javhari,
Oh chekib deki, vafo gavhari!
Bu duri noyob vafomu ekin?
Gar ul emas, mehribiyo ekin?

Mehribiyo demaki, anqodur ul,
Javhari fardu duri yaktodur ul". [154-b]
Ma'nosi: "Sofdil odamlar u javharning otini so'rasalar, oh chekib, "Vafo gavhari!" debjavob ber. Ha, bu noyob dur vafomikin? Vafo bo'lmasa, mehribiyo ekin? Yo'q, uni mehribiyo ham dema, anqo deb ata, javharning durri yolg'iziyu durri yagona deb ata". [58-b] Navoiy butun umri davomida olgan xulosalari aks etgan asari "Mahbub ul-qulub"ning —Mutafarriqa favoyid va amsol surati (yaxshi fe'llar va yomon xislatlar to'g'risida) deb nomlanuvchi uchinchi qismida ham vafoga ta'rif bitgan. Unga ko'ra vafo insoniyat tojining gavharidir. Navoiy yozadi: "Durredur samin insoniyat tojiga zevar, olamda insoniyat nobud va javharidin otashin - odamiylik boshig'a afsar, olam ahlida odamiyliq nomavjud". [508-b] Manosi shunday: "Vafo "shunday asl gavharki, u insoniyat tojiga ziynatdir. Lekin dunyoda vafoga loyiq inson yo'qdorki, bu uning boshidagi jig'zga porlab tursa. Ammo olam elida odamiylik yo'qdir". [93] Ushbu fikrlar hozirgi zamonda ham o'z qadrini yo'qotmagan. Kishilarning bevafoligi tufayli chekilgan ozorlar ko'plab insonlarning ko'ngli og'rishiga sabab bo'ladi. Navoiy ham insonlarga mehr-muhabbat, vafo ko'rsatgani evaziga ko'p bevafolik



ko’rmaguncha yoki yuz alam tortmaguncha qutulmagani haqida shunday yozadi: “Kimga qildim bir vafokim – yuz javosin ko’rmadim?! Ko’rguzib yuz mehr, ming dardu balosin ko’rmadim?!” [509] Navoiy vafo haqida so’z yuritganda boshqalardan farqli ravishda uni hayo bilan yonma-yon holda shunday tasvirlaydi: “Karam va muruvvat ato-onadurlar, vafo va hayo ikki hamzod farzand. Har necha ul ikovga nur bila safodut, bu ikovga ittisol bila payvand. Har ko’ngulnikim vafo maskan qikur, hayo ham qilur va har maskandakim, ul topilur, bu ham topilur. Vafosizda hayo yo’q, hayosida vafo yo’q. Har kimda bu ikki yo’q – imon yo’q va har kimda imon yo’q –andin odamiyliq kelmoq imkon yo’q. Umrkim, vafosizdur – andin umid ko’zin yorutsa, bo’lmas, mahbubki bevafodur – andin jovidi visol tama’ tutsa bo’lmas. Eranlar – ahli vafo va xotunlar – bevafo, komillar –

ahli hayo va noqislar behayo”. [508-b] Ma’nosi: “Karam va muruvvat va muruvvat ota ota va onadirlar: vafo bilan hayo esa, bularning ikki egizak farzandlaridir. U ikkovida qancha ravshanlik va soflik bo’lsa, bu ikkovida ham shu jipslik va birlik bor. Har bir yurakda vafo bo’lsa, u yerda hayo ham bor va har maskanda u topilsa, bu ham barqaror. Vafosida hayo yo’q; hayosizda vafo yo’q. Agar kimda bu ikki sifat bo’lmasa – unda iymon ham yo’q. Va agar kimda iymon bo’lmasa , unda odamiylik ham yo’q... Kamolga yetgan odamlar – hayoli; kamol topmaganlar nuqsonli va hayosiz”. [94] Navoiyga ko’ra, vafo va hayo insonda komillikni tarbiyalashda katta ahamiyatga ega. Xulosa shuki, shaxsni tarbiyalashda asrlar davomida shakllangan ijtimoiy, falsafiy, tarbiyaviy bilimlar navoiy qarashlariga mushtarakdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy. “Hayrat ul-abror”. To’la asarlar to’plami. O’n jildlik. Oltinchi jild. T.: “G’afur G’ulom nomidagi NMIU”, 2012. [153-b], [154-b], [177-b], [182-b], [192-bet], [194-b]
2. Alisher Navoiy. “Saddi Iskandariy”. To’la asarlar to’plami. O’n jildlik. Sakkizinchchi jild. T.: “G’afur G’ulom nomidagi NMIU”, 2012. [24-bet], [313-b]
3. Alisher Navoiy. “Mahbub ul-qulub”. - To’la asarlar to’plami. O’n jildlik. To’qqizinchchi jild. - T.: “G’afur G’ulom nomidagi NMIU”, 2012. [508], [509].
4. Alisher Navoiy. “Hayrat ul-abror” (nasriy bayoni). [58-b]
5. Alisher Navoiy. “Mahbub ul-qulub” (Qisqartirib nasriy tadbil qiluvchi Maxsumov. I). T: “Yangi asr avlod”, 2019. [93-b], [94-b].
6. Muhammadiyev.A. “Mahbub ul-qulub” da insoniy fazilatlar tarannumi. “Alisher Navoiy va XXI asr” mavzusidagi xalqqaro ilmiy-nazariy anjuman. [133-136 bet].
7. Muhammadiyev.A. “Navoiy nasihatasi (Mahbub ul-qulub”va hadislar muqoyasasi)”. “Samarqand universiteti” gazetasi. 2012-yil 14-yanvar. [4-bet].
8. Muhammadiyev.A. “Alisher Navoiyning “Mahbub ul-qulub” asarida hadislarning badiiy talqini”. –Imom Buxoriy kunlari” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. (Samarqand sh. 2000-yil) [74-77 bet].
9. Muhammadiyev.A. “Mahbub ul-qulub”da hadislar talqini. “Navoiyga armug’on” to’rtinchi kitob. T: Fan, 2004-yil. [115-116 bet].
10. www.ziyouz.com